

O'zbekiston etnologiyasining nazariy-uslubiy muammolariga bag'ishlangan anjuman

O'zR FA Tarix instituti tomonidan "Akademik Karim Shoniyoziyov o'qishlari" turkumida "O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari" mavzusida VIII respublika ilmiy-amaliy anjumanı o'tkazildi. Unda soha mutaxassislari, yosh tadqiqotchilar, shuningdek, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirok etdi.

Anjuman doirasida arxeogenetika va Markaziy Osiyo qadimgi aholisining shakllanishi, Markaziy Osiyo antropogenez jarayoni, tarixiy, ijtimoiy-madaniy va multigenetik aloqalar, etnologiya va lingvistika kabi masalalarga bag'ishlangan mavzularda ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.



Anjuman yakunida etnologiya fani istiqboli, o'zbek xalqining tarixiy merosi, milliy mafkurani shakllantirish bilan birga kelgusida ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilab olindi.

Ushbu ilmiy anjuman fan va ta'lif integratsiyasini ta'minlash asosida oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va ularni ilmga qiziqtirishga xizmat qiladi.

